

---

**CHAQIRIQQACHA BOSHLANG'ICH TAYYORGARLIK ELEMENTLARI  
VOSITASIDA TALABALARNI HARBIY XIZMATGA TAYYORLASHDA  
VATANGA FIDOIYLIK TUSHUNCHALARINI SINGDIRISHNING  
DOLZARBLIGI.**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7848107>

**Qo'chqorov Sobirjon Ahadjonovich**

*FarDU Harbiy ta'lim fakulteti*

*mustaqil tadqiqotchisi*

**Annotsiya.**

*Ushbu maqolamda talabalarning harbiy bilimga ega bo'lishi shaxs sifatida shakllanishida muxim a'xmiyatga ega. Chunki, harbiy bilim talabada mas'uliyat, intizom xissini shakllantirish bilan birga jismonan va ruhan chiniqtiradi, irodasini charxlaydi. Talabalarni har tomonlama barkamol, vatanparvarlik ruxida tarbiyalaydi. Harbiy bilim talabalarda Vatan oldidagi mas'uliyatni xis qilish, Vatanga sadoqat tuyg'usi shakllanishida asosiy omil sanaladi. Qolaversa, milliy o'zlikni anglash, vatanparvarlik, va bilim olishga ishtiyoq uyg'otadi. Mana shu tuyg'ularning asosi harbiy ta'lim jarayonida shakllanadi.*

**Аннотация.**

*В данной статье приобретение студентами военных знаний имеет большое значение в формировании личности. Потому что военное воспитание, наряду с формированием у курсанта чувства ответственности и дисциплины, тренирует его физически и духовно, заостряет его волю. Воспитывает студентов в духе патриотизма во всех отношениях. Военное воспитание является главным фактором формирования чувства ответственности и верности Родине. Кроме того, пробуждает чувство национальной идентичности, патриотизм, желание учиться. Основа этих чувств формируется во время военной подготовки.*

**Annotation.**

*In this article, the acquisition of military knowledge of students is of great importance in the formation of a person. Because, along with forming a sense of responsibility and discipline in a student, military education trains him physically and mentally and sharpens his will. It educates students in a comprehensive, patriotic spirit. Military education is considered the main factor in the formation of the sense of responsibility to the Motherland and the feeling of loyalty to the Motherland. In addition, it awakens national identity, patriotism, and a desire to learn. The basis of these feelings is formed during military training.*

### **Kalit so'zlar.**

*Qurolli Kuchlar, harbiy, jismoniy, ma'naviy, chiniqish, Vatan, bilim, ko'nikma, qurol-yaroq, texnika, strategik, taktik, samarador, metodik, pedagogik, minchlik, yurt, xalq, aholi, o'lka, mamlakat, urush, iqtisodiy, g'oyaviy, ekologik, o'lka, millatlararo, etnik, diniy, ziddiyat.*

Bugungi kunda mamlakatimizda qabul qilingan Milliy xavfsizlik kontseptsiyasi, Qurolli Kuchlarning uzoq muddatga mo'ljallangan Dasturining bosh maqsadi – ixcham, tezkor va harakatchan, zamonaviy qurol-yaroq va texnika bilan ta'minlangan, strategik va taktik vazifalarni samarali xalq etara oladigan, sarxadlarimiz daxlsizligi, yurtimizdagi tinchlik va barqarorlikni buzishga qaratilgan har qanday yovuz harakat va xurujlarni bartaraf etish va ularga munosib zarba berishga qodir bo'lgan kuchli armiyani yaratishga qaratilgan<sup>15</sup>.

Albatta ushbu vazifalarni amalga oshirishda oliy ta'lim muassasasida harbiy ta'lim yo'nalishida bilim olayotgan talabalarda harbiy intizom, mas'uliyat, burch, vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish muxim ahamiyatga ega. Chunki, harbiy ta'lim jarayonida talabalarda jismoniy va ma'naviy jixatdan chiniqish, Vatan ximoyasi uchun doimo tayyor turish kabi bilim, ko'nikma va malakalar shakllanadi. Ularda harbiy saloxiyat, harbiy-siyosiy muammolar, jamoa xavfsizligi xaqidagi tafakkur kamol topadi.

Oliy o'quv yurtining harbiy ta'lim yo'nalishida faoliyat yuritayotgan har bir talaba harbiy saloxiyatga ega bo'lishdan tashqari ma'naviy jixatdan ham yetuk bo'lishi, mintaqadagi harbiy-siyosiy muammolarni tinch yo'l bilan yechish, jamoa xavfsizligini vujudga keltirish, terrorizmga qarshi birgalikda kurash kabi ishlarni bajarishda faol ishtirok etish mas'uliyati kamol topadi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan tub isloxotlardan kelib chiqib quyidagi vazifalavrga aloxida e'tibor berilishi kerak:

- talabalarda harbiy bilim samaradorligini oshirish pedagogik muammo sifatida ilmiy nazariy asoslash, uning moxiyati, asosiy tushunchalarini ta'riflash;
- talabalarda harbiy bilim samaradorligini oshirishga doir ilmiy-pedagogik hamda amaliyotdagi xolatni o'rganish;
- talabalarda harbiy bilim samaradorligini oshirish mazmuni, shakl va metodlarini ishlab chiqish;

<sup>15</sup> Milliy xavfsizlik kontseptsiyasi, Qurolli Kuchlarning uzoq muddatga mo'ljallangan Dasturidan.

- talabalarda harbiy bilim samaradorlik darajasini aniqlash;
- talabalarda harbiy bilim samaradorligini oshirish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Insoniyatning ezgu orzu-niyatlaridan biri – bu yurtda tinchlikning barqaror bo'lishi hisoblanadi. Zero, yurtda tinchlik bo'lsagina, xalq mehnat qiladi, moddiy va ma'naviy ne'matlar yaratadi, jamiyatda rivojlanish va taraqqiyot ta'minlanadi. Tinchlik jamiyat a'zolari imkoniyatlarini yagona maqsad – xalq farovonligini oshirish, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanish bo'yicha yuqori natijalarni qo'lga kiritishning muhim omillaridan biridir. “Bashariyat faqat tinchlik va osoyishtalik barqaror bo'lgan taqdirdagina o'z oliy maqsadlariga erishadi, moddiy va ma'naviy yuksaklik ko'tariladi”<sup>16</sup>.

Yurt tinchligi xalq osoyishtaligi, farovonligi garovi bo'lib, uning barqaror bo'lishi fuqarolarning uni saqlash yo'lida kurash olib borishlari, fidoiy va vatanparvar bo'lishlariga bog'liq.

“O'zbek xalqi tinchlikni yuksak qadrlaydi, uni o'z orzu-intilishlari, maqsad muddaolari ro'yobga chiqishining kafolati deb biladi”<sup>17</sup>.

Shu bois mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq yurtda tinchlikning mangu barqaror bo'lishini ta'minlash, uni asrash, qo'shni davlatlar bilan o'zaro do'stlik, birodarlikka erishish, shuningdek, xalqaro maydonda ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarida hamkorlikni yo'lga qo'yishga jiddiy e'tibor qaratib kelinmoqda.

“Bugungi kunda O'zbekiston xalqining milliy taraqqiyot yo'lidagi asosiy maqsadi – ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish bo'lib, bu g'oya millatimizning azaliy orzu-umidlarini, intilishlarini, bunyodkorlik faoliyatining ma'no-mazmunini ifodalaydi”<sup>18</sup>.

“O'zbek tilining izohli lug'ati”da “yurt” tushunchasi “ma'lum xalq, aholi yashab turgan joy, o'lka, mamlakat, vatan” deya ta'riflansa, “tinchlik” atamasi “urush, o'zaro ziddiyatli to'qnashuvlar va shu kabilardan holi sharoit, tinch sharoit” ma'nosini anglatishiga urg'u beriladi.

“Tinchlik” tushunchasi muayyan sharoit, vaziyat va holatni ifoda etish bilan birga turli xalqlar, davlatlar o'rtasidagi munosabat darajasini ham ko'rsatishga xizmat qiladi. Bunda davlatlararo munosabatlar ular o'rtasidagi o'zaro imzolangan shartnomaga muvofiq hech qanday zo'rlik vositalarisiz, ishonch asosida o'z zimmlariga olgan majburiyatlarning so'zsiz, qat'iy bajarilishi asosida yo'lga qo'yiladi. Tashqi siyosatda bunday yo'l tutilishi uyushgan harbiy, qurolli

<sup>16</sup> Sh.Mirziyoev so'zidan.

<sup>17</sup> Sh.Mirziyoev so'zidan.

<sup>18</sup> Sh.Mirziyoev so'zidan.

to'qnashuvlar ro'y berishining oldini olibgina qolmay, davlatlar o'rtasida jamiyat ravnaqini kafolatlovchi, foydali shartnomalarning imzolanishiga sharoit yaratib beradi.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasi milliy istiqlol g'oyasining eng asosiy tamoyillaridan biri sifatida yurt tinchligi e'tirof etilgan. "Zero, tinchlik va osoyishtalikni saqlash o'z-o'zidan sodir bo'ladigan hodisa emas... Ayniqsa, milliy mustaqillikka tajovuzning turli shakllari, murakkab "texnologiyasi" vujudga kelgan hozirgi davrda yurt tinchligini saqlab qolish uchun mustahkam qat'iyat, kuchli iroda va moddiy-moliyaviy resurslar zarur bo'ladi. Bu haqiqatni odamlar ongiga singdirish, ularni yurt tinchligini saqlash maqsadlari, vazifalari natijasida vujudga kelgan ayrim qiyinchiliklarga chidam va sabr-toqatli etib tayyorlash milliy istiqlol mafkurasining bosh yo'nalishlaridan biridir".

Yuqorida bildirilgan fikrlarga ko'ra aytish mumkinki, "yurt tinchligi" tushunchasi lug'aviy jihatdan "urush, o'zaro ziddiyatli, qurolli yoki qurolsiz to'qnashuvlardan holi, iqtisodiy, g'oyaviy, ekologik, turli buzg'unchi axborot tahdidlaridan muhofazalangan o'lka (mamlakat, joy)" ma'nosini anglatadi.

Millatlararo, etnik yoki diniy ziddiyatlar, nizolar mavjud bo'lgan davlatlarda tinchlikni barbod etuvchi urushlar yuzaga keladi. Urushlarning ro'y berishi jamiyat taraqqiyoti, unda yashovchi xalq, millat yoki elatlarning madaniy darajasi, ularga xos bo'lgan qadriyatlar mazmuni bilan xarakterlanadi. Tinchlikning barqaror bo'lishida ham ana shu xususiyatlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Har qanday yurtda tinchlik o'z-o'zidan qaror topmaydi, balki unda yashovchi kishilarning sa'yi-harakatlari, hoxish-istaklari, davlat boshqaruvining oqilona olib borilishi, eng muhimi, o'zaro birlik, hamjihatlik evaziga o'rnatiladi. Darhaqiqat, "tinchlikni saqlash muammosini o'z-o'zidan kishilarning xohish-istagi, orzu-umidlari bilan hal qilib bo'lmaydi". Manbalarda yurtda tinchlikning barqaror bo'lishini ta'minlashda quyidagilarga e'tibor berish zarur ekanligini ko'rsatiladi: mustaqillik va tinchlikni asrash uchun mamlakatimizni tajovuzkor kuchlardan himoya qilishga doimo tayyor turish; doimo izchil va qat'iy harakatlarni olib borish.

Insoniyat tarixiy taraqqiyotini o'rganish, shundan dalolat beradiki, yurtda tinchlikni qaror toptirish, asrash murakkab, o'ta mas'uliyatlilikni talab etuvchi jarayon sifatida quyidagilar mavjudligini taqozo etadi:

- jamiyat a'zolari (mamlakat fuqarolari)ning ahilligi, hamjihatligi;

- ko'p millatli davlatda millatlararo munosabatlarning to'g'ri yo'lga qo'yilganligi, muayyan millatga alohida imtiyozlarning berilmasligi, tub aholi sanalmaydigan millatlar vakillarining etnik kamsitilishiga yo'l qo'yilmaslik;

- qo'shni davlatlar bilan tinchlikni ta'minlash borasida o'zaro kelishuvga egalik, do'stlik munosabatlarini o'rnatish;

- o'zga millat, elat va xalqlarning tarixi, buguni, tili, madaniyati, milliy qadriyatlari hamda diniy e'tiqodini hurmat qilish, istiqboli, intellektual, iqtisodiy va ma'naviy-ruhiy imkoniyatlariga ishonch bildirish, ishlab chiqish, ilm-fan, texnika va texnologiya sohalarida o'zaro tenglik asosidagi hamkorlikni yo'lga qo'yish;

- harbiy tuzilmaga ega bo'lish, Qurolli Kuchlar (armiya) tarkibining salohiyati, kasbiy malakasini oshirish, zamonaviy harbiy texnika, qurol-yarog' bilan to'la ta'minlash;


- xalqaro, etnik munosabatlarni tashkil etish, shuningdek, ichki siyosatning to'g'ri olib borilishiga mas'uliyatli yondashish;

- mintaqa hamda xalqaro maydonda ro'y berayotgan voqea-hodisalar mohiyatini to'g'ri anglash, tahlil qilish, oqibatlarini bashoratlash orqali kelib chiqish ehtimoli bo'lgan ziddiyatlarning oldini olishga urinish;

- mamlakat ichkarisida jinoyatchilikka qarshi kurashish, milliy qadriyatlarga yot, buzg'unchi g'oyalarning tarqatilishiga yo'l qo'ymaslik, terrorizm, diniy ekstremizm g'oyalarning yoyilishi, shuningdek, yuqumli xavfli kasalliklar tarqalishiga yo'l qo'ymaslik va boshqalar.

"O'zbek xalqi tinchlikni yuksak qadrlaydi, uni o'z orzu-intilishlari, maqsad-mudaolari ro'yobga chiqishining kafolati deb biladi. Shuning uchun doimo Yaratgandan tinchlik va omonlik tilaydi. Holbuki, bashariyat faqat tinchlik va osoyishtalik barqaror bo'lgan taqdirdagina o'z oliy maqsadlariga erishadi, moddiy va ma'naviy yuksaklikka ko'tariladi". Shu bois respublika mustaqilligining ilk kunlaridanoq o'zbek xalqi yurt tinchligini muqaddas hodisa sifatida ardoqlab, bebaho boylik sifatida qadrlab kelmoqda.

Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya ishlarini samarali tashkil etish chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarida yurt tinchligini g'oyasini muvaffaqiyatni shakllantirish imkonini beradi. Bu jarayonda kutilgan natijalarni qo'lga kiritishda quyidagi tamoyillar o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.



Quyida talabalarda yurt tinchligini g'oyasini shakllantirishda ustuvor ahamiyat kasb etuvchi tamoyillarning mohiyati ochib beriladi.

1. *Ta'limning g'oyaviyligi va aniq maqsadga yo'naltirilganligi.*
2. *Ta'lim-tarbiya tizimining birligi.*
3. *Ta'limning izchilligi va uzluksizligi.*
4. *Milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi*
5. *Tarixiy vorisiylik*
6. *Ta'lim oluvchilarning yosh, psixologik xususiyatlarini inobatga olish.*
7. *Targ'ibot ishlarining ko'lami va mazmuni*
8. *Ta'lim muassasalari, davlat va ijtimoiy tashkilotlar hamkorligi.*

Chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarida yurt tinchligi g'oyasini shakllantirish oliy ta'lim muassasalari faoliyatining muhim tarkibiy qismi sifatida amalga oshiriladi. Bu jarayon ta'lim va auditoriyadan tashqarida tashkil etiladigan ma'naviy-ma'rifiy ishlar yo'nalishlarida kechib, bir necha bosqichlarda amalga oshiriladi. Ya'ni:

1-bosqich: talabalarda chaqiriqqacha harbiy ta'lim asoslari bilan birga milliy istiqloq g'oyasining muhim tarkibiy qismi bo'lgan "yurt tinchligi" g'oyasining mohiyati borasidagi nazariy bilimlarni hosil qilish;

2-bosqich: talabalarda yurtda tinchlikni qaror toptirish, uning barqarorligini ta'minlash, muhofaza qilishga o'z hissasini qo'shish ehtiyojini qaror toptirish, harbiy vatanparvarlik hissinu uyg'otish;

3-bosqich: talabalarda yurt tinchligini ta'minlash, muhofaza qilish jarayonida zarur bo'ladigan amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish.

Talabalarida yurt tinchligi g'oyasini shakllantirish jarayonida ularning jismoniy jihatdan komillikka erishishlariga ham alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Shu bois jismoniy tarbiya darslarida talabalarning jismoniy komillik darajalarini doimiy ravishda inobatga olib borish, ko'zga tashlanadigan muammolarni o'z vaqtida bartaraf etib borish talab qilinadi. Bunda tibbiyot xodimlarining yordamlaridan foydalanish mumkin. Shuningdek, jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida ijodiy yondashgan holda harbiy faoliyat ko'rinishlari, jumladan, milliy harbiy an'analardan bo'lgan - o'yinlar elementlarini qo'llash ham mazkur predmetni chaqiriqqacha harbiy ta'lim asoslari fanlari bilan bog'lash uchun sharoit yaratadi.

Oliy ta'lim muassasalarining talabalarida yurt tinchligi g'oyasini shakllantirishda o'quv yurtlari bilan ijtimoiy tashkilotlar o'rtasida hamkorlikni qaror toptirish ham e'tibordan chetda qolmasligi zarur. Zero, ular o'rtasidagi hamkorlik talabalarning yurt tinchligining mohiyati, uni qaror toptirish va muhofaza qilishga doir nazariy va amaliy bilimlarini boyitadi. Shu bilan birga ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga yordam beradi.

Mustaqillik, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimini takomillashtirish, uni zamonaviy harbiy texnikalar bilan qurollantirish hamda harbiy kadrlarning yuqori jangovar tayyorgarlikka ega bo'lishlarini ta'minlash yo'lida keng ko'lamlı ishlarni amalga oshirish imkoniyatini yaratdi. Milliy mustaqillikni mustahkamlash va Qurolli Kuchlar tizimi salohiyatini oshirishga qaratilgan ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-g'oyaviy ishlarning sifat va samaradorligi bugungi kun talabalariga to'la javob beradi. Bugungi davrda talabalar orasida sog'lom ma'naviy muhitni yaratishda ta'lim-tarbiya ishlariga alohida e'tibor berish, harbiy tayyorgarlik jarayonini ilg'or texnik va texnologik vositalar, yangicha usul-uslublar asosida tashkil etish, harbiy xizmatning intellektual mezonlari va yo'nalishlarini takomillashtirish maqsadga muvofiqdir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Milliy istiqlol g'oyasi (Bakalavr bosqichi uchun darslik). – T.: Akademiya, 2005. – 368 b.
2. Pedagogika nazariyasi. X.Ibragimov, Sh.Abdullaeva. T.: Fan va texnologiyalar, 2008-yil.

3. Qo'chqorov S., & Azamatov, J. A. (2022). TA'LIM-TARBIYa TIZIMI TARAQQIYoTINING YaNGI BOSQICHI. SO'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI, 1(4), 200-204.

4. Qo'chqorov, S. (2022). YaNGI PEDAGOGIK TEXOLOGIIYaLAR. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 1(11), 375-377.

5. Qo'chqorov S., & Azamatov, J. A. (2022). TA'LIM-TARBIYa TIZIMI TARAQQIYoTINING YaNGI BOSQICHl. SO'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI, 1(4), 200-204.

6. Qo'chqorov S. (2022). YaNGI PEDAGOGIK TEXOLOGIIYaLAR. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 1(11), 375-377

7. Maksudov, U. K. "SCIENTIFIC-THEORETICAL ANALYSIS OF THE PROMOTION OF STUDENT-YOUTH INITIATIVES BASED ON THE GENDER APPROACH." *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities* 11.3 (2023): 688-693.

8. Kurbanovich, M. U. "Pedagogical tendencies of the development of social activity skills of primary school pupils through the use of folklore." *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 10.5 (2020): 562-566..

9. Максудов У. и Ё. Эралиевы. "PEDAGOGIKA FANLARINI O'QITISHDA MULTIMEDIALI VOSITALARDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI." *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI* 2.12 (2022): 68-73.

10. Qurbonovich, Maqsudov Ulug'bek, and Rahmonova Ruqiya Zuhriddinovna. "TA'LIM JARAYONIDA MULTIMEDIYA TEXNOLOGIYALARINING ISTIQBOLLARI." (2022).

11. Максудов, У. К. (2019). УСТНОЕ НАРОДНОЕ ТВОРЧЕСТВО КАК ФАКТОР СОЦИАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ ЛИЧНОСТИ РЕБЕНКА. In *EUROPEAN RESEARCH: INNOVATION IN SCIENCE, EDUCATION AND TECHNOLOGY* (pp. 49-51).